

CHORTOQ SHEVASIDAGI AYRIM MAISHIY SO`ZLARNING MA`NOLARI

Nozima Ahmadjonova

NamDU o`zbek tili va adabiyoti yo`nalishi 4-kurs talabasi

Annotatsiya. Maqolada Namangan viloyati Chortoq shevasidagi ayrim maishiy so`zlarning ma`nolari izohlangan. Ularning o`zbek adabiy tiliga bo`lgan munosabati yoritilgan. Maqolada qayd etilgan maishiy so`zlar Chortoq sheva arealiga aloqador bo`lib, ular qo`shni shevalarga taqqoslangan.

Kalit so`zlar. Sheva areali, so`z varianti, sheva va lahja, maishiy leksika, o`zga shevalarga munosabat, shevaning adabiy tilga munosabati.

Аннотация. В статье разъясняются значения некоторых бытовых слов в чортокском диалекте Наманганской области. Освещается их отношение к узбекскому литературному языку. Упомянутые в статье бытовые слова относятся к чортокскому диалектному ареалу и сопоставляются с соседними диалектами.

Ключевые слова. Диалектный ареал, вариант слова, диалект и диалект, бытовая лексика, отношение к другим диалектам, отношение диалекта к литературному языку.

Abstract. The article explains the meanings of some everyday words in the Chortok dialect of the Namangan region. Their attitude to the Uzbek literary language is highlighted. The everyday words mentioned in the article belong to the Chortok dialect area and are compared with neighboring dialects.

Keywords. Dialect area, word variant, dialect and dialect, everyday vocabulary, relation to other dialects, relation of the dialect to the literary language.

Inson o`z hayoti davomida ma`lum bir til asosida tarbiya topadi, shakllanadi va barkamollik sari intilib, voyaga yetadi. Uning ma`naviy-madaniy yuksalib borishida millat tilining o`rni va roli beqiyosdir.

Ta`kidlash o`rinliki, bugungi globallashuv sharoiti va ijtimoiy hayotdagi o`zgarishlar tilga o`z ta`sirini o`tkazmay qolmasligi o`z tasdig`ini topgan hodisa hisoblanadi. Shuning uchun ham hamisha tilshunoslik taraqqiyoti, istiqboli va rivoji uchun shevalarni o`z vaqtida o`rganish, yozib olish va ular to`g`risida muayyan xulosalarga kelish, ilmiy asoslarda o`rganish muhim va alohida dolzarblik kasb etadi. Binobarin, til va jamiyat munosabatlarini yaxlit holda o`rganish uchun, jamiyatdagi kishilar turmush darajasini bilish va belgilashda dialekt va sheva areallarini tadqiq etish bugungi til siyosatidagi zaruriy masaladir. Ana shuni hisobga olgan holda tilni rivojlantirish hamisha va har vaqt o`z dolzarbligini yo`qotgan emas.

Quyida mana shu maqsadda, ya'ni o'zbek adabiy tiliga asosiy omil bo'lgan o'zbek shevalari tizimida o'ziga xos xususiyatlarga ega bo'lgan Namangan viloyati Chortoq sheva arealidagi ayrim dialektal so'zlar va ular anglatgan ma'nolarga to'xtalib o'tmoqchimiz.

Chortoq sheva arealidagi aholisining so'zlashuv jarayonlaridagi lug'aviy birliklar ham juda rang-barang va o'ziga xos fonetik, semantik va grammatik xususiyatlarga ega bo'lib, o'zbek adabiy tilidan farq qiladi.

Hudud aholisi nutqida qo'llanuvchi quyidagi maishiy leksik birliklar anglatgan ma'nolarini izohlashga harakat qilamiz. Bu birliklar fonetik-fonologik jihatdan so'zlarning mazmun qobig'ida ham, ifoda qobig'ida ham o'zbek adabiy tilidan farq qiladi. Ularning ayrimlarining ifoda qobig'i – nomemasi adabiy tilda mavjud bo'lsa-da, ular Chortoq sheva arealida boshqa ma'nolarda qo'llanilishiga guvoh bo'ldik. Jumladan:

1. Chuldur (juldur) – yirtilib, ilma-teshik bo'lib ketgan eski kiyim.
2. Chuldurvaqa – gapga quloq solmaydigan, gap uqmas, gapga kirmaydigan bola.
3. Po'rsildoq – haddan ziyod semirib, to'lishib ketgan odam. Jonsiz narsalarga nisbatan ham to'lishib, semirib pishgan ma'nosida qo'llanadi.
4. Kalpista – kaltakesak.
5. Pit – ignaning uchini yoki boshqa uchli va keskir narsalar uchining o'tmaslashib qolishi.
6. Pitrak – o'smirlar yuziga chiqadigan xusnbuzarning dialektal varianti.
7. Lo'vak – qiz va ayollarning peshona sohasiga turli hajmda osilib turadigan sochning ma'lum bo'lagi.
8. Ucha – inson tana a'zolaridagi ma'lum bir qism: ikki kurakning o'rtasi yoki kuragi.
9. Chimaliq – chumoli. (Uyni chimaliq basip ketipti - Uyni chumoli bosib ketibli).
10. Olvali – olcha (ta'mi nordonroq, maydaroq qizil mevali turi).
11. Sheda – mana shu yerda. (Anu qiz hozi sheda turgandi – Ana bu qiz hozir mana shu yerda turgan edi).
12. Po'palamoq - ardoqlamoq, e'zozlamoq, qadrlamoq.
13. Kigiz (ad.: namat) – qalin, qo'y junidan tayyorlanadigan to'shama.
14. Ehtan-behtan - u yoq, bu yoqdan.
15. Kshotlayin, kshot – umuman, batamom, to'la-to'kist. Masalan: Ishlarim kshotlayin (kshot) yurishmay qoldi.
16. Nenzioin – yaxshigina, tuzukkina. Qo'ylarim bu yil nenozin semirishvetti – Qo'ylarim bu yil tuzukkina semirishyapti.
17. Zen sol – diqqat va e'tiborli, sinchikov bo'lmoq, diqqat bilan qaramoq. O'tirganlaga zen soldinglami, birottasini tanidinglami? – O'tirganlarga sinchiklab qaradinglarmi, birortasini tanidinglarmi?

18. Iltaygan – juda ham nimjon, oriq. Masalan: Yozda ishlaaverip iltayib qalipsan – Yozda ko`p ishlab juda ozib ketibsan.

19. Anqov — es-hushini yig`ib ololmaydigan, gapga hadeganda tushunib yetolmaydigan; ovsar, esar odam.

20. Kepata – qiyofa, aft, turq holati. Odamning yomon, ayanchli va achinarli ahvolga tushganda paydo bo`ladigan qiyofasi, salbiy bo`yoqdor so`z.

21. Po`yhonlamoq – oyog`osti qilmoq, ezib-bosib tashlamoq, toptamoq.

22. Mensimoq – manmansirash, o`zgalarga past nazar bilan qaramoq.

23. Shop – nikoh to`yi kuni kelin kelgan paytda uning ukalariga beriladigan hadya, sovg`a: pichoq, soat va boshqa narsalarning umumiy nomi.

24. Ipirisqi – hammaning joniga tekka, hamma bezigan odam.

25. Nalati (la`nati) – la`natga, ota-onasining tayini bo`lmagan, ulardan tarbiya olmagan, tarbiya bera olmaydigan ota-onaning farzandi, qarg`ishga duchor bo`ladigan, la`natlanishga dohil odam.

26. Omada (qipchoq lahjalarida: omondoz) – asrab-avaylab, ehtiyotlab ishlatmoq. Picho dedangniki, omadi ishlat – Bu dadangning pichog`i, uni avaylab ishlatgin.

27. So`ltamat – bo`sh, lapashang layoqadsiz odam.

28. Guzur (ruscha: kuzor) – mahallaning eng kuchli, mushtlashadigan, qo`rqmas, chapdast bolasi.

29. Nig`ich (qipchoq lahjalarida: chipong`) – haddan ortiq ko`p. Bola nig`ich qantlarri cho`nchagiga sovoldi – Bola ko`pgina konfetni cho`ntagiga solib oldi.

30. So`ppi / so`piltiriq – chaqaloqlar va bolalarning bosh kiyimi: do`ppi yo shapkasining eng tepa cho`qqi qismiga qadab qo`yiladigan mo`yna yoki mayin va yumshoq iplardan qilingan yumoloq shakldagi bezak.

Xulosa qilib aytish mumkinki, o`zbek adabiy tilini milliy-madaniy so`zlar bilan boyitish ichki omillar orqali amalga oshirilishi zarur. Shundagina o`z tilimizning mavqeyi ortib boradi. Tilning sofliqi saqlanadi.

Keyingi paytlarda tilshunoslikda hududiy chegaralangan so`zlarni yanada kengroq va chuqurroq o`rganish, tasniflash, ularning areal yaqin shevalarga, boshqa lahjalarga hamda adabiy tilga bo`lgan munosabati masalalarini tahlil qilish, lingvistik tadqiqot metodlari asosida o`rganish muhim muammo sifatida qo`yilmoqda. Dialektologiya, lingvistik geografiya va areal tilshunoslik sohasini rivojlantirishni yanada kuchaytirish, adabiy tilimizni ichki omillar orqali rivojlantirish, asl o`zbekcha – turkiy so`zlar bilan boyitish zarurati yaqqol ko`rinib turibdi.